

O'SMIRLIK DAVRIDAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Laziza Bayjumanova Abdumanonovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Holida Ganiyeva Rustamovna

Angren texnologiya texnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik davrida o'quvchilarning xarakteri shakllanishining psixologik omillari, xususiyatlariga doir fikrlar ilgari suriladi. Ayniqsa, o'smir shaxsida xarakterni yuzaga kelishida oiladagi tarbiya va ota ona pozitsiyasining o'ziga xos jihatlari bilan aloqadorligi asoslab berilgan. Shuning bilan birga ota onaning tarbiya jarayonida qo'llaydigan usullarining samaradorlik jihatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: o'smir shaxsi, muloqot, oilaviy tarbiya, diktat, vasiylik, aralashmaslik, hamkorlik, avtoritar oila, tortinchoqlik, uyatchanlik, odamovilik.

KIRISH

O'smirlik davriga kelib, tengdoshlari bilan bo'ladigan muloqot birinchi o'ringa o'tadi. Tadqiqotlarda isbotlanishicha, do'stlar davrasiga kirishishga harakat qilish, unga qo'shilish bilan bir qatorda unda individualligini namoyish qilish, ota-onalar oldida o'z "huquq"larini talab qilish o'smirlik yoshiga xosdir. Tengdoshlari bilan gaplashish, o'zi tanlagan guruhga mansub bo'lish, uning me'yor va qoidalariga rioya qilish o'smir uchun juda muhimdir. Bu uning muayyan bir obrazda kiyinishi, ma'lum bir musiqa yo'nalishini tinglashi, aniq bir adabiyot turini o'qishida namoyon bo'ladi. Ya'ni xohlagan va tanlagan usuli bilan o'zini namoyon qilish va boshqalar. Bu yerda moddiy omil tengdoshlari guruhiga kirish yo'li sifatida aks etmoqda.

Ba'zida o'smir o'z tengdoshlari bilan til topisha olmaydi, unda guruhga qo'shib ketish xususiyati yo'q. Uyatchanlik, odamlar bilan muloqot o'rnata olmaslik, yangi maktabga o'tish kabilar sabab bo'la oladi. Bundan tashqari o'smirning o'ziga baho berishi past, o'z nuqtai nazarini himoya qila olmasa, lekin hech nimaga qaramasdan o'zi tanlagan guruhga qo'shishni xohlasa, o'smir tengdoshlarining e'tiborini qozona olishi mumkin.

Olimlarning ta'kidlashicha, o'smirlik davrida o'ziga xos xususiyatikattalar bilan munosabatni qaytatdan qurish. "Ota va bolalar" qaramaqarshiliklari aynan shu davrga xos. O'smirlik davriga qadar bolalar va otaona munosabati qanday bo'lganligiga qaramasdan, bu davrga kelib o'smir kattalar dunyosiga qo'shilish uchun albatta ularga qarshi chiqishga harakat qiladi.

Agar shu vaqtda o'smir ota-ona uning injiqligiga erk berishini sezsa, uning egotsentrizmi shakllanadi va uni yo'q qilish qiyinlashadi. Agar o'smir e'tiborsizlikning boshqa turi – majburlash, avtoritarizmni sezsa u xavotirli-gumonli rivojlanmagan shaxs bo'lib katta bo'ladi¹.

Psixologlar bola tarbiya qilishdan oldin uni yaxshi ko'rish kerak deb ta'kidlaydilar. Yaqin ishonchli munosabat egotsentrik ustanovkalarni bartaraf etib, uni agressiv bo'lib ketishini oldini oladi.

O'smirda ishonchsiz havotirlanish va namoyish qilishni kengayib ketishida og'ishni kuzatish orqali, bola va o'smirlarning ijtimoiylashuvi muhim ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. O'smirlik davri qolgan yosh davri nisbatan ko'proq namoyishkorona ko'rinishga ega. Bir tomondan o'smir hali o'yin bilan eksperimentni bir-biridan ajrata olmadi, ikkinchi tomondan esa vaziyatga qarab o'z ehtiyojlarini qondirish tajribasiga ega bo'ldi. Bu tajribalar ko'proq ongsiz bo'lganligi sababli, qabul qilishdagi xatoliklar ko'rishimiz va ularni o'zgartirishimiz mumkin².

O'smirlik davrida shaxs shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim davr bo'lib, bolalikdan katta hayotga o'tish hisoblanadi. Bu davrda jismoniy va psixologik o'zgarishlar bir-biriga muvofiq tarzda o'zgarmaydi. Buning natijasida turli muammolar vujudga kelib, o'smirning boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatiga ta'sir qiladi. Egotsentrizmning eng yuqori darajasi 10-15 yoshlarda namoyon bo'ladi. O'smirlikda o'ziga va boshqalarga munosabati o'zgaradi. Agar oldin bolaga kattalar tanbeh berishi, nima yaxshi, nima yomonli haqida aytishsa, bola ular bilan rozi bo'lib ular aytganini qilar edi. Endi esa bu bola hamma narsani o'zi mustaqil, kattalardan so'ramay qilishga intiladi. Ota-onalar ta'siri ikkinchi darajaga o'tib, tengdosh-do'stlar ta'siri birinchi darajaga o'tadi.

Oiladagi tarbiya ham shaxs shakllanishida ishtirok etadi. Lekin bu shaxsda egoistik yo'nalganlikka olib kelishi mumkin. Oiladagi tarbiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjud: -diktat; -vasiylik; -aralashmaslik; - hamkorlik.

Agar oilada ishkilikbozlik yo'q, ammo ota-ona bolaga qanday tarbiya berishni bilmaydi, ota va ona hamkorlikda ishlamaydi, bir-birini hurmat qilmaydi, bunday sharoit ham bolada shaxs shakllanishi salbiy ta'sir ko'rsatadi³.

Agar oilada tarbiyaning diktat ko'rinishi bo'lsa, unda bolaga nisbatan ortiqcha talabchanlik, kuchli nazorat kuzatiladi. Jazolashda hatto jismoniy kuchdan ham foydalaniladi. O'smirlik davrida bunday tarbiya natijasida bolada o'z qadrini bilish hissi yo'q bo'lib boradi. 11-12 yoshdan boshlab o'zi uchun javob berishni boshlaydi.

¹ Пашукова Т.И. Исследование эгоцентризма с помощью эгоцентрического ассоциативного теста / Новые исследования в психологии и возрастной физиологии. Педагогика, 2019. №2. С.45-48.

² Райс Ф. Психология подросткового и юношеского возраста.-Санкт-Петербург: Москва Харьков Минск. 2020. - 723 с

³ Пашукова Т.И. Эгоцентризм в подростковом и юношеском возрасте: причины и возможности коррекции. Учебн. пособие для студентов, школьных психологов и учителей. – М.: Институт практической психологии, 2018.

Ota-onalar o'ziga majburiy bo'ysundirish natijasida, bolada ularga nisbatan qo'pollik, nafrat tuyg'usi vujudga keladi. Ota-ona o'ziga majburiy bo'ysundira olsa ham boladagi ba'zi xususiyatlar yo'qolib borishni boshlaydi: mustaqillik, o'z qadrini bilish, o'ziga ishonch va boshqalar.

Hamkorlik ko'rinishi shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bolada shaxsiy xususiyatlar rivojlanadi. Ota-ona tomonida tazyiq o'tkazish o'rniga ishontirish metodi qo'llaniladi, omadsizlikka uchragan hamdardlik bildirish, bolaning noto'g'ri harakatlarida boshqalarga nisbatan hurmat tuyg'ulari tushuntirilsa, bu bola albatta shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi⁴.

O'smirlik davridagilar uchun turli diskussiya (muammoli vqaziyatlar) o'tkazish mumkin. Diskussiya vaqtida bola turli argument va faktlarni keltirish orqali unda mantiq paydo rivojlanadi. Shuningdek, ularga baxs yuritish madaniyatini ham o'rgatish lozim. Egotsentrizm fikrlashdan tashqari nutqda ham namoyon bo'ladi. Egotsentrizmning nutqdagi ko'rinishi bu egotizm va retrofleksiya. Egotizm- o'zi haqida boshqalarga ayniqsa, tengdoshlariga gapirib berishda namoyon bo'ladi. O'zi haqida gapirib bola tengdoshlari oldidagi statusini ko'taradi, o'zini ulardan ustun qo'yishni boshlaydi. Mana shunda egotsentrizm namoyon bo'ladi. Bunda nafaqat o'ziga va boshqalarga nisbatan ham me'yorni bilishi kerak. Egotsentrizm nutqning rigidligida ham rivojlanadi. Yetarlicha kommunikativ ko'nikmaga ega bo'lmagan shaxs suhbatdoshini diqqat bilan tinglaydi, lekin ichida monolog tuzadi. Ona tili va adabiyoti fanlari o'quvchilarda nutqning rigidligini yo'qotib, uni egotizmga almashtirishga yordam beradi. Nutqning rigidligi bir so'zni qaytaqayta takrorlashda, "mmm...", "a..." tipidagilarni ko'p ishlatishda, sekin tempda gapirishda, fikrlarni qayta takrorlashlarda namoyon bo'ladi. Bunda nafaqat o'qituvchilarning nazorati balki, suhbatlarni magnitofonga yozib olish ham yordam beradi. Shuningdek, so'zlarga sinonimlar topish ham so'z boyligini oshiradi⁵.

XULOSA

Bolalarda salbiy odatlarni kamaytirishda turli diskussiya, rolli o'yinlar ham yordam beradi. Chunki ularda bola boshqalarning ham fikri bilan qiziqadi va eshitadi. Agar o'smirlarga ta'sir ko'rsatish qiyin bo'lsa, psixoterapevtik va psixokorreksion yordam ham qo'l kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пашукова Т.И. Исследование эгоцентризма с помощью эгоцентрического ассоциативного теста / Новые исследования в психологии и возрастной физиологии. Педагогика, 2019. №2. С.45-48.

⁴ Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога в образовании. Учебное пособие. – М.: ВЛАДОС, 2016.

⁵ Пашукова Т.И. Эгоцентризм в подростковом и юношеском возрасте: причины и возможности коррекции. Учебн. пособие для студентов, школьных психологов и учителей. – М.: Институт практической психологии, 2018.

2. Райс Ф. Психология подросткового и юношеского возраста.-Санкт-Петербург: Москва Харьков Минск. 2020. - 723 с

3. Пашукова Т.И. Эгоцентризм в подростковом и юношеском возрасте: причины и возможности коррекции. Учебн. пособие для студентов, школьных психологов и учителей. – М.: Институт практической психологии, 2018.

4. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога в образовании. Учебное пособие. – М.: ВЛАДОС, 2016.

5. Пашукова Т.И. Эгоцентризм в подростковом и юношеском возрасте: причины и возможности коррекции. Учебн. пособие для студентов, школьных психологов и учителей. – М.: Институт практической психологии, 2018.

6. www.pedagogika.uz

7. www.aim.uz

8. www.ziyonet.uz

9. www.arxiv.uz